

MAVZU: Katta yoshdagi o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari



REJA:

1

Androgogikada katta yoshli odam tushunchasi


2

yosh davrlariga ajratish tarkiblari

3

Katta yoshdagi o'quvchilarda uchraydigan ichki tosiqlar







Andragogika kattalami o'qitish, ilmiy-uslubiy va kadrlar bilan ta'minlash faoliyatiga oid umumiy qonuniyatlarga duch keldi. Kattalami o'qitish haqida gap ketganda, kimni kattalari qatoriga o'qitish kerak degan savol tug'iladi? Androgogik nuqtai - nazaridan biz kimni "katta odam" deb ataymiz?

Baxtga qarshi, ta'lim maskanidan keyingi hayot faoliyati davri ilmiy asosda tasnif etilmagan. Odamda ushbu davr yoshga ko'ra (30 yoshgacha, 30 yoshdan 45 , 65 yoshgacha, 75 yoshdan keyin) yoki an'anaviy tarzda yoshlik , etuklik, keksalik deb nomlanadi








Kattalarni turli yosh davrlarida o'qitish o'ziga hos ma'no kasb etadi;



1.YO shlik davri(18-30 yosh).
YOshlik davri biologik va ijtimoiy imkoniyatlarning ortishi bilan xarakterlanadi.

Bu davrda shaxs oila qurish, farzand ko'rish, mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, jamiyatning ijtimoiy - siyosiy hayotda faol ishtirok etish

imkoniyatiga ega bo'ldi.





2. Etuklik davri. "Etuklik" tushunchasida ma'lum bir yoshga etish, etuklik, tajriba, davr mujasamlashadi. Etuklik davri yoshlik va keksalik oralig'ida bo'lib, 30 yoshdan 55-60 yoshgacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi. Etuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quwati, qobiliyati, aql-zakovati va ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga safarbar eta oladi




3. Keksayish davri.

Keksayish davriga 55(60) yoshdan 70 (75) yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar kiradilar

Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin:

- a) mutloqo iste'foga chiqqan "ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar;
- b) nafaqaxo'r, lekin ijtimoiy hayotdan uzoqlashmagan erkak va ayollar.



Ularning xis- tuyg'ulari yashash tarziga muvofiq holda namoyon bo'ladi:





- barqaror kayfiyat, hotirjamlik tuyg'usi, o'z qadri-qimmatini saqlash, nufuz, e'tibor talablik;
- osoyishta xulq-atvor, tabiat qo'ynida mehnat qilish zavqi, go'zallikdan bahra olish;



Enter title here


ADD YOUR TITTLE HERE

Katta yoshdagilar ta'limini tashkil etish mobaynida ayrim tashqi va ichki qiyinchiliklarni mavjudligini ham nazarda tutish lozim. Axborot olish tizimlari kuchayib ketgan hozirgi davrda, zamonaviy o'quvchi yoki talaba o'z ota -onasidan axborot masalasida ustunlik qiladi.





Kishining yoshi ulg'ayib borgan sari, uning yangi zamonaviy ta'lim jarayoniga kirishiga yillar davomida shakllangan ichki to'siqlar halal beradi. Quyida mazkur to'siqlar haqida to'htalib o'tamiz:






Enter title here

ADD YOUR TITTLE HERE


Psixofiziologik

Ayrim kattalarda o'zining ta'lim olish qobiliyatiga ishonchsizlik mavjud bo'ladi. Ular yosh o'tishi bilan idrok, xotiraning susayganligini ro'kach qiladilar. Ammo tadqiqotchi olimlarning ko'rsatishicha, har qanday yoshda ta'lim olish mumkin. Chunki turli yoshlarda diqqat, xotira va tafakkurning shakliari va tipi yoshga mos xolda o'zgarib boradi.







Ijtimoiy-psixologik





Ko'pgina katta yoshdagi kishilar "o'quvchi" rovida bo'lishdan cho'chiydilar va o'zlarini noqulay xis qiladilar. Ayniqsa, bu hokimiyat zinapoyasining yuqorisida turgan shaxs larga tegishlidir. Ular ijtimoiy - pedagogik ta'sir ob'ektiga aylanib qolishga ruhan tayyor bo'lmaydilar. Egallab turilgan ijtimoiy o'rin, yangi axborot tizimiga kirish, uni o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.



Ijtimoiy



Ijtimoiy hayotning turli sohalarida yangi bilimlar olishga bo'lgan talablarning mavjud emasligi yoki o'ta darajada ko'pligi ham, kishining ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.






Psixologik-pedagogik

Kishining butun hayoti davomida ta'lim olish zarurligi to'g'risidagi vazifaning shakllanmaganligi zamonaviy mutaxassisning o'z kasbiy mahoratini doimo oshirib borishi shart ekanligi e'tiborga olinmaydi. Ayrim hollarda kishilar kattalar ta'lim olishi mumkinligi haqida tasavvurga ega bo'lmaydilar

❖ O'qitish jarayoniga qo'shilar ekan, katta yoshli odam faol o'rinni egallaydi.

Hayotiy tajriba va sub'ektiv munosabat, zamonaviy odamga ta'lim jarayonini baholash hamda o'qitish usullarini tanlash imkonini beradi. Uning uchun dars berayotgan o'qituvchi va tinglovchilarning ham shaxsiy, kasbiy sifatleri muhim sanaladi Shuning uchun kattalarni o'qitish o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam va o'zaro birdamlik muxitida amalga oshiriladi. Katta odamni o'qitish jarayonida u o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishni ko'proq maqul ko'radi



Etiboringiz uchun raxmat !

